



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



## NAVOIY VA BOBUR LIRIKASIDA MA’NAVIY-AXLOQIY MASALALAR

### SPIRITUAL AND MORAL ISSUES IN THE LYRICS OF NAVAI AND BABUR

**Maxamova E’zoza Ravshan qizi**

Navoiy innovatsiyalar universiteti magistranti

E-mail: makhamova97gmail.com

ORSID: 0009-0009-4546-4144

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./VHLX8580](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./VHLX8580)

**Annotatsiya.** *Maqolada Navoiy va Bobur asarlarining komil inson tarbiyasidagi beqiyos o‘rni yoritib berilgan. Asarlarida insonni irqi, millati, jinsi va yoshidan qat’iy nazar, hurmat qilish, uning baxt-saodatini ta’minlash haqida ham fikrlar bayon etilganligi namunalar orqali tahlilga tortilgan. Shuningdek, Navoiy qit’alarining ma’no-mazmuni, ramziy ifodalar tahlili, ma’naviy-axloqiy ahamiyati, shoirning fikriy yondashuvi, o‘ziga xos ijod uslubi o‘rganilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *qit’a, insoniy fazilat, komillik, muruvvat, saxiylik.*

**Annotation.** *The article highlights the incomparable role of the works of Navoi and Babur in the upbringing of a perfect person. The fact that their works also express ideas about respecting a person, regardless of race, nationality, gender and age, and ensuring his happiness is analyzed through examples. The meaning and content of Navoi’s verses, analysis of symbolic expressions, spiritual and moral significance, the poet’s intellectual approach, and his unique creative style are also studied.*

**Keywords:** *verse, human virtue, perfection, kindness, generosity.*

Inson kamolotiga chek-chegara yo‘q. Muttasil kamolot sari intilmoq taraqqiyot boisidir. Mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan yoshlar insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, to‘g‘rilik, muhabbat, sadoqat, kattaga hurmat, kichikka izzat, ota-onani e‘zozlamoq, bilimga intilmoq, ozodalik, shukronalik kabi fazilatlarni o‘zlarida mujassam etsalar yoki o‘z hayotlari davomida ana shu yuksak insoniy fazilatlarga qarab intilsalar, albatta, ma’naviy kamolotga erishadilar. Insonparvarlik – insonni irqi, millati, jinsi va yoshidan qat’i nazar, hurmat qilish, uning baxt-saodatini ta’minlashga qo‘ldan kelgancha harakat qilish, o‘zgalar farog‘atidan xursand bo‘lishdir. Farzandlari ma’rifatli, ma’naviyatli, o‘zligini tanitgan xalqning komil farzandlari, ona Vatan, zamin qadrini har narsadan yuksakka qo‘yadi. [G‘ulomova, 2023: 16]. Shuning uchun ham xalqimiz farzand tarbiyasida boshidan, ya’ni juda yoshligidan e’tibor qiladi.

Bugungi kunda farzand tarbiyasi eng muhim va dolzarb masalalardan biridir. Inson yoshligida qanday tarbiya ko'rsa, kelajakda uning mahsulini ko'radi. Mumtoz adabiyotimizning buyuk vakillari Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning bir nechta asarlarida bosh mavzu tarbiya masalasidir. Bu ikki shoirning she'riy asarlarida insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy fazilatlar kabi tarbiyaviy masalalarga alohida ahamiyat berishgan. Jumladan, Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida farzand tarbiyasini insoniyatning eng oliy burchi sifatida talqin etadi. Uning fikricha, tarbiya erta yoshdan, ya'ni bolalikdan boshlanishi zarur:

*Ulga erur tiftl ila shoista ish  
Bilki kichiklikda erur parvarish.  
Qatroga chun tarbiyat etdi sadaf  
El boshiga chiqquncha topdi sharaf.*

Mazkur bayt orqali Navoiy tarbiyaning nihoyatda ahamiyatli ekanligini ta'kidlab, bola qanday tarbiyalansa, uning jamiyatdagi mavqeyi ham shunga yarasha shakllanishini ko'zda tutgan. Farzandni yosh niholga qiyoslagan. Unga qanchalik e'tibor qaratilsa, to'g'ri parvarishlansa, u to'g'ri o'sadi. Undan ko'pchilik foyda ko'radi.

*Nokas-u nojins avlodin kishi bo'lsin debon  
Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat.  
Kim kuchuk birla xo'tukka necha qilsang tarbiyat  
It bo'lur dog'i eshak, bo'lmas aslo odami.*

Inson ta'lim-tarbiyasi tufayli boshqa jonzotlardan ajralib turadi. Tarbiya insondagi o'zgarmas xislatlardandir. Tarbiyani inson dunyoga kelishi bilanoq, balki ona qornidaligidayoq boshlamoq zarur ekanligini Alisher Navoiy mahorat bilan yuqoridagi misralarda ifoda etgan.

*Nafsing etsa shuxlug', charx emgagidin qil adab  
Tiftlni andoqki zajr aylar falak birla adib.*

Navoiyning “G'aroyib us-sig'ar” asaridan olingan mazkur baytda bolaga yoshligidanoq yetarli va to'g'ri ta'lim-tarbiya berish kerakligi, bu nechog'lik mashaqqat va vaqt talab etsa-da, unga jiddiy yondashish zarurligi uqtiriladi. [G'ulomova, 2023: 72]. Alisher Navoiy boshqa siyosiy ishlardan ko'ra, tarbiya masalasini birinchi o'ringa qo'ygan. “Yosh bolaga nisbatan eng zarur ishi: uni kichikligidan parvarish qilish va ilm-u odob o'rgatish uchun muallim chaqirish” deya tarbiyaviy ahamiyatga ega fikrlarni bildirgan. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asarida bola tarbiyasi bilan oilada va maktabda shug'ullanib, namuna uslubidan foydalanish tavsiya etilgan. Navoiy “bir ota-ona farzandiga go'zal tarbiyadan ko'ra qimmatliroq meros qoldira olmaydi” kabi hikmatli so'zlarni ilgari surishi uning ijodida tarbiya ahamiyati yuqoriligini ko'rsatadi. Hazrat Navoiy bolalarga jismoniy jazo berish emas. Balki xushmuomalalik bilan muomalada bo'lishni, lekin bunda ham me'yordan oshmaslik lozimligini o'qtiradi.



Alisher Navoiy sharqda “Nizomi din” unvoni bilan ulug'langan bo'lsa, G'arbda Chig'atoy adabiyotining eng buyuk vakili” deya e'tirof etilgan. YUqoridagi tahlillardan ko'rinmadiki, Navoiy asarlarining ilk g'oyasi odamiylik, axloq va yuksak ma'naviyatdir. Alisher Navoiy ko'plar sohalarga rivojiga o'zining nodir asarlari bilan ulkan hissa [Abjalova, G'ulomova, 2023: 16] qo'shgan. Benazir asarlarining ichida kulliyot, janrlari orasida qit'a alohida ahamiyatga ega janr sanaladi. “Oz-oz demakning manfaati-vu va ko'p so'zning manzarasida” deb nomlangan qit'a tarbiya va axloq masalalarining avvalida tilni tiyish, fikr qilib tavoze bilan gapirish haqida mulohaza yurilitilgan:

*Navoiy tiling asrag'il zinhor  
Desangkim, yemay dahr ishidin fusus.  
Nazar qilki, o'q og'zi tilsiz uchun,  
Qilur tojvarlar bila dast bo's.  
Necha tojvardur kesarlar boshin,  
Chu hamgomsiz nag'ma tortar xurus.*

O'qiganlarimizdan ayon bo'lganidek, qit'a boshidan oxirigacha til odobiga bag'ishlanadi. Behuda so'zlashning zarari, so'zning qadri xususida fikrlar bayon etiladi. Har bir holatda afsus chekib qolmaslik uchun tilni tiyib yurish lozimligini tayinlaydi va tinimsiz qichqirib, odamlarni bezovta qilganligi uchun xo'rozni boshini kesadilar deya, soda misolni ham qit'ada keltirib o'tadi. Tilning ofati haqida “Mahbub ul-qulub” asari 3-bob 47-48 tanbehlarida ham batafsil to'xtaladi. “Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz” maqola xalq orasida tez-tez qo'llanadi. Tilini tiya olgan kishi donishmand hakimdir, tiliga erk bergan odam beandisha pastkash. Tili shirin va yoqimli bo'lsa yaxshi, tili bilan dili bir bo'lsa, yana ham yaxshi. Bir so'z bilan aytganda odamzod tili tufayli boshqa jonzotlardan imtiyozli ekanligini ta'kidlaydi [Navoiy, 2018: 128]. Jumladan, quyidagi qit'ada kamtarlik, kechirimli va tavozeda bo'lish xususida fikr yuritiladi. Navoiy shu uch xislatga ega bo'lgan kishini chin ma'noda komil inson qatoriga qo'shishimiz mumkin deydi. Ushbu qit'a tarbiyaviy ruhdagi qit'asi sifatida “Hukamo qalbining tarjimasini insoniyat” bobida (“Donishmandlarning insoniyat haqidagi fikrlari tarjimasini”) deb nomlanadi:

*Tavoze' yaxshi, ammo yaxshiroqdur,  
Agar da'b etsa ani ahli davlat.  
Erur ham avf xo'b-u xo'broq ul  
Ki, zohir bo'lg'ay el topganda qudrat.  
Ato ham turfa ishdur turfaroq bil,  
Agar yo'qtur aning yo'qtur yonida minnat.  
Hakim insoni komil debdur ani,  
Ki, bo'lg'ay zotida bu necha xislat.*

Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimning 12-surasi “Yusuf” surasi bo'lib, bu suraning nazm-u uslubida o'zgacha latofat, ayricha joziba mavjudki, islom olamidagi eng buyuk qalam ahllari undan mutaassir bo'lib,



she'r-u dostonlar bitganlar. Unda jumladan, Yusuf (a.s.)ning beqiyos husni, otasi Ya'qubning unga bo'lgan cheksiz muhabbati, Yusuf birodarlarining g'ayirligi va uni quduqqa tashlab yuborganliklari, Zulayho o'rtasidagi mojarolar, tuhmat bilan zindonga tushishi, tushlarni to'g'ri ta'bir qilish mo'jizasi, hayoti oxirida sabri tufayli Misrda aziz bo'lganligi, Yusuf (a.s.)ning firog'ida ko'zlari oqargan Ya'qub (a.s.)ning farzandini ko'ylagi hididan ko'zlari yorishib ketgani kabi voqea va hodisalar mumtoz she'riyatimiz vakillari uchun bitmas-tuganmas ilhom va ijod manbai bo'lgan. [G'ulomova: 2024: 75]: Jumladan, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining “Navodir ush-shabob” devoniga kiritilgan “Pahlavon motamining sarguzashti va manzur sabzhat firoligining sarnavishti” deb nomlangan 38-qit'ada Hamza, Yusuf obrazlarini keltirish orqali talmeh san'atini yuzaga keltirgan [Navoiy: 2011: 697]:

*Pahlavon erdi mening yorimu bir sho'x anisim  
Biri o'ldiyu biri itti, ishim bo'ldi taassuf.  
Roviyo hajrlaridip manga yo'qtur kecha uyqu,  
Qisayi Hamza degil gohsho gah qissai Yusuf.*

Navoiy baytida tashbeh she'riy san'atini qo'llash orqali talmehning favqulodda yangi bir ko'rinishini kashf etgan. Baytning birinchi misrasida ilgari surilgan fikrning isboti uchun ikkinchi misrada bir ajoyib obraz keltiriladi. Bu obraz o'zining mutanosibli bilan kishini hayratda qoldiradi, har bir so'z, tashbeh, o'xshatish bir-biriga mos, maqbul [Ishoqov, 2013: 203].

Adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetov Navoiy iste'dodining shu tomoniga e'tibor berib: “Mobodo Navoiy boshqa asar yozmasdan faqat “Xazoyin-ul maoniy”ni hatto uning tarkibidagi bitta devon – “G'aroyib us-sig'ar” yoki “Navodir ush-shabob”, yoxud “Favoyid ul-kibar”ni yaratganda adabiyotimiz tarixida eng ulug' shoirlarimizdan bo'lib qolar edi”, – degan edi. Darhaqiqat, Hazrat Navoiy qit'alarida insonni komillikka yetaklovchi eng muhim masalalar haqida mutafakkirning tengsiz mulohazalarini, hayot haqiqatlarni anglaymiz.

Navoiyning serqirra ijodini davom ettirgan Bobur ham ruboiylarida odamiylik, odob-axloq, tarbiya va ta'lim masalalarini mahorat bilan kuylaydi. Jumladan:

*Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,  
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir,  
Yaxshi kishi ko'r magay yomonlik hargiz,  
Har kimki yomon bo'lsa jazo topqusidir.*

Ushbu ruboiyda inson axloqiy masalalarga, xulq-atvoriga hamisha e'tiborli bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, Bobur yaxshilik va yomonlikning qonuniyatlarini o'z she'riga o'tkazgan va bu orqali insonni haqiqatga, adolatga, yaxshilikka undagan. Ushbu ruboiy pedagogik nuqtayi nazardan insonni axloqiy to'g'rilikka, o'z-o'zini anglashga va o'z xatolarini tuzatishga chaqiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tarbiya insonni kamolotga yetkazadigan eng muhim omildir. Ma'naviy merosimizni asrab-avaylash, ajdodlar ruhini ulug'lash

ko‘nikmalarini shakllantirish, mutolaa madaniyatini oshirish natijasida teran fikrga ega bo‘lish, tafakkurni kengaytirishga erishiladi [Abjalova, G‘ulomova, 2023: 21]. Alisher Navoiy va Bobur asarlaridagi tarbiya masalasiga oid qarashlari bugungi kun yoshlari uchun mustahkam poydevordir.

### Adabiyotlar:

1. Abjalova M., Gulomova N. and Xasanova G. Alisher Navoi Author’s Corpus: Relevance, Necessity and Significance. – Navoiy 2023.
2. Abjalova M., G‘ulomova N. Alisher Navoiy korpusini yaratish texnologiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. O‘zbekiston: til va ma’naviyat. Lingvistika. ISSN 2181-922X. 2023 Vol. 4 (1). – B.14-32.
3. Abjalova M., G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish texnologiyasi. // O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika, – Toshkent: ToshDo‘TAU, 4 (1) /2023. – B. 14-31.
4. Abjalova M., Gulomova N. Alisher Navoi And The Third Renaissance Period. // Procedia of Theoretical and Applied Sciences. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – pp. 111-115. Alisher Navoi And The Third Renaissance Period | Procedia of Theoretical and Applied Sciences
5. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impact Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546
6. Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub. – Toshkent: Sano satandart, 2018. – B.128.
7. G‘ulomova N. “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi g‘azallarda uchragan maqollar va iboralar tadqiqi. Zamonaviy ilm va ta’lim istiqbollari mavzusida respublika ko‘p tarmoqli ilmiy va amaliy konferensiya. – Termiz, 2023. – B.102-107.
8. G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Navodir ush-shabob” devonidagi g‘azallarni grammatik teglash xususiyatlari. O‘zMU xabarlari // Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.
9. G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun g‘azallarni grammatik teglash xususiyatlari. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent. 2024. – B.152-158. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11109133>.
10. Is‘hoqov Y. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – B.203.
11. Sirojiddinov S., Abjalova M., Normamatov S. and Gulomova N., “The Problem of the Archaic Words’ Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus, 2024 9th International Conference on Computer Science and



Engineering (UBMK), Antalya, Turkiye, 2024, pp. 48-53, doi:  
10.1109/UBMK63289.2024.10773477.

12. Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги  
нашриёт матбаа ижодиёт уйи. 2011. – Б.697.